

KIMYO FANINI O'QITISHDA FINLANDIYA TAJRIBASI

Ergashev Elyor Yuldoshevich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti «Kimyo» kafedrasi o'qituvchisi

Tel.: 99 682 01 95; Email: ergashev31121995@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqola matnida maktab ta'limni rivojlantirishda xorijiy davlatlaridan Finlyandiya ta'lim tizimidan yetishib chiqqan nobel mukofoti sovrindolari, maktabda tarbiya yo'nalishlari, kitobxonlikka e'tibor, kimyo fanini o'qitishda e'tibor qaratiladigan yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, PISA, nobel, tarbiya, kitobxonlik, maktab, kollej, universitet, texnika, loyiha, reaksiya, energiya.

Kimyo fanining o'qitilishi. Finlandiyada mingdan ortiq maktab, yuzga yaqin kollej va universitetlar mavjud bo'lib, ularda yuqori sifatli kimyo fani bo'yicha ta'lim olish mumkin. Kimyo fani 7-sinf dan o'tiladi. Kimyo fanidan alohida fan dasturi tuzilmagan. O'qituvchi maktab o'quvchilaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqaradi.

Kimyo fanini o'qitishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi.

7- sinf 1. Texnika xavfsizlifi. moddalar 2. Kimyoviy reaksiya turlari Kimyoviy tajribalar Kichik ilmiy loyihalar	8- sinf Energiya paydo bo'lishi va turlari Atrof muhitda va inson organizimida boradigan reaksiyalar Kimyoviy moddalarning xossalari, kimyoviy hodisalar va jarayonlar Organik moddalar
9- sinf Atom tuzilish, Kimyoviy elementlar Kimyoviy bog'lanishlar Metal va metalmaslar Organik moddalarning xossalari	10,11,12 siflar Kimyo fani litsey va gimnaziyalarda chuqurlashtirilib o'tiladi

Yo'nalishlar	O'zbekiston	Finlandiya
Kimyo fanini o'qitilishi	7-11 sinf - o'rta maktab, 10-11 sinf-akademik litsey, kollej, OTM	7-9 sinf o'rta maktab 10-12 sinf -Kolledj, litsey, gimnaziya, OTM
Fanga oid dasturlar	standart talablari asosida ishlab chiqiladi	maktab o'quvchilaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqariladi
Fanning nomi	umumiy kimyo, anorganik kimyo, organik kimyo	Umumiy kimyo, organik kimyo
Fanga ajratilgan soatlar	xaftasiga 2 soatdan	7 -sinf-xaftasiga 2 soat, II-semestr 8 -sinf - xaftasiga 3 soat, I-semestr 9 -sinf - xaftasiga 2 soat, I- semestr
Darsliklar	har bir sinflar buyicha darsliklar mavjud	darslik va o'quv qo'llanmalar, Internet materiallari asosida
Texnik ta'minot	Laboratoriya xonalari, Kimyoviy jixozlar va moddalar mavjud.	Har bir maktab bazasidan kelib chiqqan holda mavjud
Didaktik materiallar	darslik, o'quv qo'llanma, tarqatma materiallar, texnik vositalar, kompyuter taqdimotlari	Internet materiallari va foydalaniladigan platformalar
Baholash usullari	umumta'lim maktablarida chorak va yakuniy akademik litsey va kollejdagi joriy, oraliq va yakuniy nazorat. 5 balli sistema	Darsda baho qo'yilmaydi. Sinf dan sinfga ko'chganda kuzatuv natijasi asosida qo'yiladi. 10 balli sistema
Uyga vazifa	Og'zaki, yozma	Qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish.

Baho kimga kerak?

Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so'zda baho qo'yiladi: o'rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko'rinishdagi baholar yo'q.

Finlandiya maktablarida kimyo fanini o'qitishda atrof- muhitda sodir bo'ladigan

hodisalar orqali tushuntiriladi. Finlandiyada ta'lim asosan atrof olamni o'rganishga qaratilgan bo'lib fanlar integratsiyasiga ahamiyat beriladi. Kimyo fanini o'rganishda olingan bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olishga, tadqiqot ishlari olib borishga yo'naltirilgan. Buning uchun o'quvchilarga mustaqil ishlash uchun loyiha ishlar beriladi. Loyiha ishini individual yoki kichik guruhlarda bajariladi. Loyiha ishini bajarishda muammo o'rta tashlanadi, muammoni hal qilish uchun o'quvchilar ma'lumot yig'ishadi va o'z qo'llari bilan bajarishadi.

O'quvchilarga kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni tarkibini tahlil qilish va tadqiqot olib borish taklifi beriladi. Bu usul kreativ fikrlash, ijodgorlik, izlanuvchanlik, yaratuvchanlikni O'quvchining yoshi, qabul qilish darajasi inobatga olingan holda mavzular yoritilib boriladi. Bunday usulda kimyoni o'qitilishining afzalliklari quyidagilardan iborat. O'quvchi fanga atrof muhitni o'rganish orqali kirib keladi. Mavzular soddalashtirilgan holda berilib boriladi.

Murakkab mavzularga oldindan ma'lumotlar berilib boriladi. Uyga vazifa berilmaydi, faqat mavzuga oid malumotlar yig'ish beriladi. Har bir bobdan keyin kichik loyiha ishlari berib boriladi.

Xulosa va takliflar.

Finlandiya ta'lim tizimining yutug' tomonlari ko'p, masalan: o'quvchilarning darsda erkinligi, fanlarni tanlay olishi, sifatni mustahkamlashga alohida e'tibor berilishi; o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin munosabat o'rnatilganligi; o'quvchilar o'rtasida farq bo'lmasligi uchun baholashning o'zgacha usuli borligi; ijodiy muhit yaratilganligi; javob bera olmagan o'quvchilarni ham o'qituvchi xushmuomalalik bilan to'g'ri yo'naltira olishi; ta'lim maqsadli individuallashtirilganligidir.

O'rganilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilib quyidagilarni O'zbekiston ta'lim tizimi maktablarda kimyo fanini o'qitishda quyidagilarni joriy qilish maqsadga muvofiq deb o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish; o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish;

darslik va adabiyotlar sifatini oshirish;

kimyo fani yo'nalishida zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish;

xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalarni joriy etish;

Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o'rniga pedagoglar muzey, o'rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi.



"Doska oldida" o'qitish usuli qo'llanmaydi, bolalar materialni so'zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O'qituvchi darsga umumiy tus beradi, so'ngra o'quvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. O'qituvchining yordamchisi (fin maktablarida o'qituvchi yordamchilari ham bo'ladi) ham huddi shu ish bilan band bo'ladi.

Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o'chirish mumkin. O'qituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin.

Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishning samarali yo'llari" gi PK-2909-sonli qarori. 2017 yil, aprel 20
2. Qiyosiy Ta'lim.Sohail Naqvi.Jurnal-septemb e r N o. 6 2012yil / sahifa 55/Miralieva D. uslubi majmua. T.: Iqtisodiyot., 2016 y, 30-dekabr.
3. Fayzullayeva N. T.: TDIU. O'quv qo'lanma. "Iqtisodiyot"., 2016 y
4. Rahmatullayev N.G', Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. "Kimyo o'qitish metodikasi", O'quv qo'lanma, Toshkent, "Iqtisod-Moliya"-2013 y
5. G.Q. Xoliqova., Sh.Sh. Karimov., S.A. Karomatov. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 /Volume: 1, ISSUE:
6. Мейнандер, Х. История Финляндии / Х. Мейнандер. – М. : Весь мир. – 2008.